

MUMTOZ MEROSGA MUNOSABATDAGI IKKI XIL QUTB: MA'RIFATPARVARLIK AN'ANALARI VA VULGAR SOTSIOLOGIZM

Yusupov Samandar Shokirjon o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20712969>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 20-30-yillarida o'zbek adabiyotshunosligida mumtoz adabiy merosga nisbatan shakllangan turli xil yondashuvlar tahlil qilinadi. Xususan, jadidlar asos solgan ma'rifatparvarlik an'analari hamda sho'ro mafkurasiga xizmat qilgan vulgar sotsiologizm o'rtasidagi ziddiyatlar Otajon Hoshim va Hamid Olimjon kabi yirik munaqqidlar faoliyati misolida yoritilgan. Shuningdek, sof adabiy jarayonlarning siyosat va sinfiy kurash nazariyalari ta'sirida qanday fojiali evrilishlarni boshidan kechirgani, keyinchalik Ikkinchi jahon urushi yillarida mumtoz merosga munosabat vatanparvarlik va qahramonlik tamoyillari asosida ijobiy tomonga o'zgargani ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek adabiyotshunosligi, mumtoz meros, vulgar sotsiologizm, ma'rifatparvarlik, sinfiy kurash, Otajon Hoshim, Hamid Olimjon, Muqimiy, sho'ro mafkurasiga, adabiy tanqid.

Abstract: This article analyzes the various approaches to classical literary heritage in Uzbek literary criticism during the 1920s and 1930s. Specifically, the conflict between the enlightenment traditions established by the Jadids and the vulgar sociology that served Soviet ideology is highlighted through the activities of prominent critics such as Otajon Hoshim and Hamid Olimjon. The paper also explores how pure literary processes underwent tragic transformations under the influence of politics and class struggle theories, and how the attitude towards classical heritage later shifted positively towards principles of patriotism and heroism during the Second World War.

Keywords: Uzbek literary criticism, classical heritage, vulgar sociology, enlightenment, class struggle, Otajon Hoshim, Hamid Olimjon, Muqimiy, Soviet ideology, literary criticism.

XX asrning 20-yillari oxiri va 30-yillarida o'zbek adabiyotshunosligida o'tmish adabiy merosini baholash masalasida juda keskin bahs-munozaralar bo'lib o'tdi. Bu davrda ziyolilarning adabiy-tanqidiy qarashlari asosan ikki yirik qutbga bo'lingan edi. Bir tomonda jadidlar va ularning izdoshlari tomonidan shakllantirilgan ma'rifatparvarlik an'analari tursa, ikkinchi tomonda adabiyotga faqat tor sinfiy va siyosiy qoliplar orqali yondashuvchi vulgar sotsiologizm oqimi qaror topdi. Ma'rifatparvarlar mumtoz adabiyotni milliy g'urur manbai hamda bebaho badiiy-estetik maktab sifatida qadrlash va saqlab qolishni maqsad qilgan bo'lsa, vulgar sotsiologlar o'tmish asarlarini qoloq feodallar va boylar mafkurasiga sifatida keskin qoralaganlar. Otajon Hoshim, Hamid Olimjon va S. Qosimov kabi olimlarning faoliyati o'sha davrdagi murakkab mafkuraviy chorraha va qonuniy evrilishlarning yaqqol ko'zgusi hisoblanadi.

Davr adabiyotshunosligining eng yirik nazariyotchilaridan biri bo'lgan Otajon Hoshim (1905-1938) garchi hajm jihatdan unchalik ko'p asarlar yaratmagan bo'lsa-da, ilmiy-nazariy salmog'i bilan adabiyot siyosatini belgilashda beqiyos o'ringa ega bo'lgan. U adabiyot olamiga estetik mezonlar bilan emas, balki qat'iy marksistik-leninistik qarashlarga ega faylasuf, davlat va jamiyat qurilishining sinfiy nazariyotchisi sifatida kirib kelgan. Uning 1925-1927-yillarda yozilgan "Dialektika ham dialektik usulda o'ylash", "Davlatchilik jamiyati", "Proletariat hokimiyati" kabi qator siyosiy-falsafiy maqolalari uning kelgusidagi adabiy-tanqidiy metodologiyasini qat'iy belgilab

bergan. Munaqqidning ilmiy merosida uchta yirik fundamental risola mavjud bo‘lib, bular 1928-yilda nashr etilgan “Davlat to‘g‘risida parchalar”, adabiyotshunoslik tarixida o‘tkir polemikalarga sabab bo‘lgan “Proletariat va chig‘atoy adabiyoti” (1928) hamda 1933-yilda chop etilgan “O‘zbek proletar adabiyotining bir necha ijodiy masalalari” asarlaridir. Shuningdek, u G.Olim va S.Sobirovlar bilan hamkorlikda “Uch kun” darsligini ham yaratib, ma’rifiy yo‘nalishda ham izlanishlar olib bergan.

Aynan qat’iy sotsiologik tayanch Otajon Hoshimning mumtoz adabiyotga ikki xil qutbda munosabatda bo‘lishiga olib keldi. U “Proletkult” tarafdorlari kabi o‘tmish merosini butunlay yoqib yuborish va mutlaqo rad etish kabi o‘ta radikal qarashlardan biroz chekinib, marksizmning “tanqidiy o‘zlashtirish” nazariyasiga tayandi. Olimning “Proletariat va chig‘atoy adabiyoti” risolasi o‘tmish merosini marksistik nuqtayi nazardan baholash yo‘lidagi dastlabki jiddiy qadam bo‘ldi. Ushbu asarda Chig‘atoy davri adabiyoti namoyandalari bo‘lmish Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur kabi ijodkorlarning merosi yuksak badiiy tafakkur namunasi sifatida tan olinsa-da, g‘oyaviy jihatdan “zodagonlar, feodallar va din peshvolari mafkurasi” deya qat’iy sotsiologik qolipga solinadi. Otajon Hoshimning fikricha, yangi davr proletariati mumtoz adabiyotdagi o‘ziga yot va eskirgan feodal-burjua g‘oyalaridan voz kechishi, ammo ulardagi boy til, yuksak badiiy shakl va ifoda usullaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishi lozim edi.

Otajon Hoshimning mazkur yondashuvi tashqi tomondan milliy merosni asrashga, ma’rifatparvarlikka qaratilgandek taassurot uyg‘otsa-da, aslida asarning chinakam ruhiyati, ilohiy-badiiy jozibasi va tub mohiyatini rad etib, uni shunchaki jonsiz “shakl qolipiga” aylantirishdan iborat edi. Shu tariqa, olim eski adabiyotni butkul rad etuvchi ashaddiy sotsiologlar hamda mumtoz merosimizning sadoqatli himoyachilari (Cho‘lpon, Fitrat) o‘rtasida o‘ziga xos ilmiy “murosachi” vositachi vazifasini bajarishga urindi. Shunga qaramay, uning asl muddaosi va tayanchi sho‘rolarning mafkurasiga va sotsiologik tahlil tamoyillariga xizmat qilish bo‘lganini yashirib bo‘lmaydi.

Munaqqid ilmiy merosining salmoqli qismini tashkil qiluvchi ellikdan ortiq maqola va taqrizlar uning ilmiy qarashlarida yuz bergan o‘zgarishlarni aks ettiradi. 1930-yillarga kelib olimning tafakkur qamrovi yanada kengayib, qator fundamental-madaniy muammolarni o‘z ichiga ola boshladi. Xususan, uning qalamiga mansub “O‘zbek adabiy tili va uning imlosi haqida” (1933), “O‘zbek folklori to‘g‘risida” (1935), “O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari haqida” (1936) hamda “Yevgeniy Onegin” tarjimasini haqida (1937) kabi dasturiy ishlari o‘sha davr adabiy va madaniy jarayonlarida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur maqolalarni kuzatar ekanmiz, Otajon Hoshim shunchaki tor siyosiy doirada qolib ketmay, balki xalq og‘zaki ijodi hamda tilshunoslik singari milliy qadriyatlarini o‘rganishda ham chuqur nazariy izlanishlar qilganiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asari tarjimasini tahlil qilganda, olim so‘z san’ati, tarjima estetikasi va badiiy matn qonuniyatlariga alohida e’tibor qaratadi. Bu kabi tadqiqotlari orqali u vulgar sotsiologizm qoliplaridan biroz yiroqlashib, chinakam ilmiy-ma’rifiy adabiyotshunoslikka ancha yaqinlashgan edi. Ammo o‘sha davrdagi qatag‘on va qattiqqo‘l siyosiy muhit uning bu teran ilmiy izlanishlarini yakuniga yetkazishiga imkon qoldirmadi. O. Hoshimning ilmiy faoliyati XX asr adabiyotshunosligida ulkan salohiyatning siyosiy iqlim va sinfiy kurashlar iskanjasida qanday murakkab yo‘lni bosib o‘tganini ko‘rsatuvchi yorqin misoldir.

Olimning yirik tadqiqotlarida o‘zi ta’kidlaganidek “sotsial-g‘oyaviy tahlil” mezoni eng oldingi o‘rinda turadi. Lekin bu uni mutlaqo xolis sotsiologik tahlil ustasi bo‘lgan deb xulosa chiqarishga asos bo‘lolmaydi. Chunki uning ijodidagi bunday tahlillar marksizm-leninizmning sinfiy kurash

nazariyasiga ko‘r-ko‘rona bo‘ysungan edi. U folklor bo‘ladimi yoki ming yillik yozma yodgorliklarmi, barcha namunalar negizidan hukmron yoxud ezilgan sinflarning o‘zaro ziddiyatini va ularning manfaatlarini qidiraverardi. Bunday vulgar yondashuv oqibatida, u o‘zbek adabiyoti tarixini estetik taraqqiyotiga qarab emas, balki qat‘iy siyosiy va iqtisodiy qo‘liqlar asosida tasniflab chiqdi.

Unga ko‘ra: xalq og‘zaki ijodi (folklor) – asrlar davomida ezilgan mehnatkashlar dardining ifodasi; qadimiy va ilk o‘zbek adabiyoti – qonxo‘r feodallar va amirlarning mafkurasi; chig‘atoy davri adabiyoti – savdo vakillari va boy zodagonlar g‘oyasi; jadidlar adabiyoti – milliy burjuaziya orzulari, proletar adabiyoti esa inqilobiy hokimiyatni o‘rnatgan ishchi-dehqon sinfining yagona haqli intilishlarini ifoda etgan adabiyot deb topilgan.

Mana shu xatarli xulosalarga tayanib, O. Hoshim ijodkorlar oldiga qat‘iy talab qo‘ydi: yangi davr proletar adabiyotini shakllantirishda faqat mehnatkash xalq qalamiga mansub folklor namunalari ijobiy tajriba sifatida olinishi kerak. Qolgan mumtoz, chig‘atoy va jadid merosidan esa aslo o‘rnak olib bo‘lmaydi. Ular inqilobiy adabiyot uchun faqatgina "sinfiy dushmani tanish" vositasi sifatidagina xizmat qilishi mumkin degan xulosani berdi. Shubhasizki, bu kabi fikrlar uning sof o‘z kashfiyoti bo‘lmay, sovet davlatining adabiyotdagi asosiy siyosiy ko‘rsatmalaridan biri edi.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, olim ijodidagi sotsiologizm o‘ta jo‘n (vulgar) illatlardan ham xoli emasdi. Masalan, u dostonlarni tahlil qilganda, xalqning eng yuksak g‘oyalari faqat kambag‘al, oddiy mehnatkash siymosidagina namoyon bo‘lganini uqtiradi. Ammo uning bu qarashi o‘zbek eposlarida bek va a‘yonlar qiyofasidagi mardlik, jasorat, adolat hamda vatanparvarlik fazilatlarini ulug‘langanini butunlay inkor qilib yuboradi. Holbuki, badiiy asarning haqiqiy qiymati tor sinfiy manfaatlar emas, balki davr va makon tanlamaydigan o‘lmas umuminsoniy qadriyatlar bilan o‘lchanadi. “Sotsial-estetik tahlil”iga qattiq berilgan munaqqid aynan shu mantiqni e‘tibordan chetda qoldirgan edi.

Bu ziddiyatlarning asosiy ildizini tushunish uchun Otajon Hoshimning ijtimoiy maqomiga va egallagan lavozimiga nazar tashlashning o‘zi yetarli. U aslida sof estetik tadqiqotchi emas, balki madaniy hayotdagi yuqori pozitsiyasi tufayli, adabiy muammolarning ilmiy yechimini emas, aksincha, hukmron partiya kutgan siyosiy yechimlarni topishga yo‘naltirilgan “davlat odami” edi. Shuning uchun uning mumtoz merosga munosabatini Abdurauf Fitratning chinakam badiiy xulosalarga asoslangan tahlillari bilan aslo tenglashtirib bo‘lmaydi. Fitrat qadimiy adabiyotimizdan millat ruhini axtargan bo‘lsa, Otajon Hoshim undan yo “sinfiy dushman” yoxud proletariat uchun “g‘oyaviy qurol” izlagan xolos.

1930-yillarga kelib adabiyotshunoslikdagi sotsiologik tanqid o‘zining eng cho‘qqisiga chiqdi. Endilikda eski merosni baholashning bosh mezoni – shoirning faqatgina “sinfiy kurash”dagi ishtiroki yoki “xalq dardi”ni kuylagani bilan o‘lchana boshladi. Bu masalada o‘z davrining yetuk munaqqidi Hamid Olimjon olib borgan tadqiqotlar ham juda e‘tiborlidir. Ijodining ilk pallalarida u sotsiologik yondashuvni qat‘iy qo‘llab, adabiy merosimizni aynan sinfiy kurash mezonlari asosida baholadi.

Bunga uning Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy ijodiga oid izlanishlari yaqqol dalil bo‘ladi. Olim o‘z maqolalarida Muqimiyning an‘anaviy mumtoz adabiyot namoyandasi sifatida emas, qaysidir ma‘noda “yangi” inqilobiy zamonning peshqadami tarzida tasvirlaydi. U shoir yashab o‘tgan davrni butunlay mudhish va qorong‘u kunlar sifatida baholaydi. “Muqimiyning adabiyot maydoniga kirib kelishi zulmat qoplagan osmonda yashin chaqnagandek bo‘ldi”, deya fikr bildiradi munaqqid. Hamid Olimjon bu orqali Muqimiygacha bo‘lgan adabiy jarayonni faqatgina xurafot va saroy maddohligi doirasida qolib ketgan degan xulosa bilan qoralaydi. Uning fikricha, asrlar davomida

xalqni ezib kelgan feodal tuzumga qarshi isyon ko'targan yagona sotsial qahramon bu Muqimiydir. Albatta, bu yondashuv Fitrat yoki Vadud Mahmud singari ma'rifatparvarlarning adabiy-estetik qarashlariga mutlaqo teskaridir. Zero, jadidlar o'tmish adabiyotida insoniy komillikni, ilohiy ishq va ma'rifatni ko'rgan bo'lsalar, Hamid Olimjon sotsiologik bosim ta'sirida undan faqatgina jaholat va ezilgan xalqning dardini topgan edi.

Munaqqid Hamid Olimjon o'z tadqiqotlarida Muqimiy chuqur ijtimoiy dardga ega satirik yozuvchi sifatida qadrlaydi. Uning tahlillariga ko'ra, shoir g'azallaridagi yetakchi ohang muhabbat emas, balki norozilik, isyon va faryod ruhidir. Olimjon Muqimiyning qator misralarini, hatto Furqatga yo'llangan maktubidagi hasratlarni ham oddiy lirik qahramonning shaxsiy iztirobi degan xulosadan yiroq bo'lib, uni boylar jamiyatidan uzilgan, mavjud burjua muhitidan qattiq bezgan shaxsning ijtimoiy isyoni sifatida baholaydi. Shu tariqa munaqqid o'zining sotsiologik yondashuvi vositasida Muqimiy ijodini tabaqalashgan jamiyatdagi tengsizlikka qarshi qaratilgan g'oyaviy qurol darajasiga olib chiqadi. Shoirning “Veksil”, “To'y”, “Maskovchi boy ta'rifida”, “Tanobchilar” kabi hajviyalari xuddi inqilobiy bayonnomalar singari qabul qilinadi. Masalan, u “Veksil” asarini tahlil qilar ekan, Turkistonga kapitalizmning kirib kelishi va u butun xalqni bozorga qul qilib qo'rganini shoir juda to'g'ri fosh etganini uqtiradi.

Bu o'rinda qiziqarli bir ziddiyat yuzaga keladi: XIX asrda yashagan, asarlariga o'ziga xos sharqona nafosat va so'fiyona ruh singdirgan Muqimiy H. Olimjon go'yoki marksizm g'oyalarini chuqur anglagan ongli inqilobchiga, kapitalizmning ashaddiy dushmaniga aylantirib qo'yadi. Vaholanki, shoir o'z xalqining og'ir qismatini sof islomiy adolat, insoniy rahm-shafqat tuyg'ulari orqali qalamga olgan edi. Ammo tadqiqotchi bu ma'rifiy va diniy qadriyatlarini bir chetga surib, ularga mutlaq iqtisodiy-sinfy mazmun yuklaydi. Buni munaqqidning “To'y” va “Maskovchi boy” asarlariga bergan bahosida ham yaqqol ko'rish mumkin: u boy va savdogarlarni o'z mol-dunyosi oldida ayanchli qul ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, din peshvolari, mulla va eshonlar ham ayovsiz tanqid ostiga olinib, Muqimiy ularni jamiyatning eng tuban maxluqlari sifatida fosh etgani uqtiriladi. Xulosa qilib aytganda, munaqqid mumtoz adabiyotimizdan estetik nafosat yoki lirik kechinma emas, asosan “sinfy o'ch va nafrat” axtargan.

Ta'kidlash joizki, H. Olimjonning bunday tahlillari vulgar sotsiologizmning ochiq namunasi bo'lib, o'tmish adabiyotini faqat ekspluatatorlarni fosh etish nuqtayi nazaridan o'rganish qanchalik biryoqlama oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi. U bebaho yozma matnlarni o'zining ilohiy-badiiy jozibasidan ajratib, ularni yalang'och siyosiy shiorlarga moslashtirdi. Lekin tanganing ikkinchi tomoni ham bor: insof yuzasidan e'tirof etish kerakki, balki aynan ana shunday siyosiy “himoya” sababli Muqimiy kabi qator mutafakkirlarimiz 30-yillardagi mudhish qatag'onlar girdobidan omon qolgan va adabiyot tarixidan butunlay o'chirib yuborilishdan saqlab qolingani bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Biroq 1930-yillarning oxiri va 40-yillarga kelib, Hamid Olimjonning adabiy-tanqidiy va metodologik qarashlarida jiddiy evrilish yuz berdi. Dastlab o'tmish asarlaridan faqat sinfiy ziddiyatlarni qidirgan munaqqid, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi kabi murakkab tarixiy sharoitlarda o'z yondashuvini butunlay o'zgartirishga majbur bo'ldi. Endilikda u mumtoz merosga shunchaki boylar va feodallar yodgorligi sifatida emas, balki xalqni vatanparvarlikka chorlovchi, unga ma'naviy qudrat va qahramonlik baxsh etuvchi ulug'vor manba sifatida qaray boshladi.

Bu evrilishning eng yorqin in'ikosi munaqqidning 1941-yilda e'lon qilingan “Do'stligimiz haqida” nomli publitsistik maqolasida o'z aksini topgan. Qonli urush suronlari ichida yozilgan bu asarda Alisher Navoiy siymosi mislsiz yuksaklikka ko'tariladi. Olimjon endi Navoiyni feodal davrining madhiyago'yi sifatida emas, fashizm va yovuzlikka qarshi kurashda ruhan madadkor

bo‘luvchi buyuk mutafakkir sifatida talqin etadi. Maqolada qamaldagi Leningrad shahrida, tinimsiz bombalar ostida rus olimlarining (V. Golubev, A. Yakubovskiy) Navoiy merosiga ko‘rsatgan chuqur ehtiromi va uning asarlarini tarjima qilishdagi fidoyiligi cheksiz hayajon bilan qalamga olinadi.

O‘zbeklar daho shoirining “Saddi Iskandariy” dostonidagi adolat va haqiqat haqidagi baytlari frontdagi qonli to‘qnashuvlar bilan uyg‘unlashtirilib, adolatli tuzum hech qachon yiqilmasligi haqida ulug‘vor xulosalar chiqariladi. Shu asnda Hamid Olimjon azaliy mumtoz adabiyotimiz faqat muzey obyekti emasligi, balki xalqlar do‘stligini bog‘lovchi va fashizm kabi yovuzliklarga qarshi mustahkam g‘oyaviy qalqon ekanligini isbotlab berdi. Maqola so‘nggida o‘zbek adabiyoti tarixiga avvalgi tor sotsiologik tamg‘alar bilan emas, qahramonlik prizmasidan baho beriladi. Ajdodlarimizning asrlar qa‘ridagi isyonkor ruhi va hayotbaxsh nidosi endi ma‘lum bir sinfga emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri milliy asoratga, fashizm va adolatsizlikka qarshi qaratiladi.

Shunday qilib, H. Olimjon misolida 30-yillar oxiri va 40-yillar boshida o‘zbek munaqqidligida yuz bergan bu qutblanish o‘ziga xos tarin topdi. Sotsiologik yondashuv ostida o‘tmish adabiyotini inkor etish bilan boshlangan jarayon hayot sinovlari, Vatan urushi sharoitida o‘zining teskarisiga — ya‘ni, mumtoz merosdan ilhomlanish, ma‘rifatparvarlik va insonparvarlik an‘analariga suyanish tomon o‘zgardi. Bu evrilish o‘zbek adabiy tanqidining naqadar murakkab, qonli silsilalar qurboni bo‘lganini, ayni paytda chinakam yuksak adabiyot (Navoiy, Muqimiy) har qanday siyosiy tor doiralarni yorib o‘tib, o‘zining barhayot ma‘rifiy kuchini saqlab qolishini ilmiy jihatdan to‘la isbotlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Do‘stqorayev B. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T.: ToshDU nashriyoti. 1989.
2. Jalolov A., O‘zganboyev H. O‘zbek ma‘rifatparvarlik adabiyoti taraqqiyotida vaqtli matbuotning o‘rni. – T.: Fan. 1993.
3. Karimov E. Turkiston adabiyoti //Muloqot, 1994, № 9-10.
4. Karimov Bahodir. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. – T., 2000.
5. Sharafiddinov O. Dovondagi o‘ylar. – T., 2006.
6. Fitrat. Adabiyot qoidalari. – T., 1994.
7. Qosimov B. Izlay-izlay topganlarim. – T., 1993.
8. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 14-tom. – T., 1972-79.
9. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma‘naviyat. 2004.
10. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. Antologiya. T., 2011.
11. Yassaviy kim edi? To‘plab nashrga tayyorlovchi B. Do‘stqorayev. – T., 1994.